

**“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyatida
Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini oshirish hamda
ochiqlik va shaffoflikni ta’minlash sohasida amalga oshirilgan ishlar to’g’risida
H I S O B O T**

1-oktyabr 2025-yil

“NKMK” AJda (*keyingi o‘rinlarda - Jamiyat*) korrupsiyaga qarshi kurashish hamda ochiqlik va shaffoflikni ta’minlash yo‘nalishida 2025-yil yanvar-sentabr oylari davomida bir qator ishlar amalga oshirildi.

Xususan,

Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida.

Jamiyatning shtatlar jadvaliga asosan Komplayens xizmatiga (*keyingi o‘rinlarda - Xizmat*) **15 ta** shtat birligi ajratilgan bo‘lib, shundan 13 nafari xodimlar bilan to‘ldirilgan. Hozirda 2 ta vakant lavozimlarga xodimlarni ishga olish bo‘yicha tanlov jarayonlari davom etmoqda.

2025-yil 17-yanvarda **24 banddan** iborat “NKMK” AJda 2025-yil davomida Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini oshirish hamda ochiqlik va shaffoflikni ta’minlash yo‘nalishida amalga oshirilishi rejalashtirilgan chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi va 13 ta bandning ijrosi to‘liq ta’minlandi.

Shu bilan birga, 2024-yil 25-dekabrda Jamiyat tizimida raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish xavflarini kamaytirish bo‘yicha **9 ta banddan** iborat yo‘l xaritasi tasdiqlandi hamda ularning ijrosi nazoratga olindi.

Jamiyat boshqaruviga ko‘rib chiqish uchun kiritilgan **86 ta** hujjatlar loyihalari va **28 ta** fuqaro qabuli bo‘yicha rasmiylashtirilgan bayonnomalar loyihalari Bosh yuriskonsult bilan birgalikda **huquqiy va korrupsiyaviy ekspertizadan** o‘tkazildi va qonuniyligi ta’minlandi.

Xizmat tomonidan Jamiyat Markaziy apparati va tarkibiy bo‘linmalarining jami **5 959 ta** (*5 196 ta buyruq va 763 ta farmoyish*) ichki idoraviy hujjatlar loyihalari korrupsiyaga qarshi huquqiy ekspertizadan o‘tkazildi. Korrupsiyaviy ekspertiza natijasida **127 ta** ichki idoraviy hujjatlar loyihalari normativ-huquqiy yoki ichki idoraviy hujjatlar talablariga muvofiqlashtirildi.

Jamiyatning markaziy apparati va barcha tarkibiy bo‘linmalarida 2024-yil dekabr va 2025-yilning yanvar oyida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash o‘tkazildi. Baholash natijalariga ko‘ra, **1 478 ta** funksiyalar baholanib, shundan **1 ta** “yuqori”, **25 ta** “o‘rta” va **1 452 ta** “past” darajadagi xavf-xatarlar aniqlandi hamda ularni oldini olish va bartaraf etish yuzasidan 2025-yil 23-yanvarda **14 ta** banddan iborat chora-tadbirlar Dasturi tasdiqlandi va **11 ta** bandning ijrosi to‘liq ta’minlandi.

Jamiyat ishchi-xodimlari bilan **82 marotaba** (*jumladan, 78 ta seminar, 3 marotaba brifing, 1 marotaba radioda*) huquqiy targ‘ibot va profilaktik tadbirlar o‘tkazildi. Targ‘ibot tadbirlarida **7 177 nafar** ishchi-xodimlar ishtiroki ta’minlandi.

Xizmat xodimlari tomonidan jami **13 marotaba** shundan **9 ta** onlayn va **4 ta** an’anaviy malaka oshirish kurslarida ishtirok etildi.

Jumladan, Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish Akademiyasi (International Anti-Corruption Academy)ning “Xususiy sektorda manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish” yo‘nalishida, “Davlat sektorda manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish” yo‘nalishida, “Davlat xaridlarida firibgarlik va korrupsiyaning oldini olish” yo‘nalishida **4 ta**, ISO 37001:2025 xalqaro standartining yangi versiyasi qo‘llash hamda Komplayens va risklarni boshqarish yo‘nalishlarida **2 ta**, O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasining Virtual akademiya elektron platformasida tashkil etilgan o‘quv kursini yakunlash natijasida **3 ta**, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi va BMTning taraqqiyot dasturi doirasida “Davlat organlari va tashkilotlari da korrupsiyani oldini olish va komplayens-nazorat tizimi samaradorligini oshirish” mavzusida **1 ta** hamda Buyuk Britaniyada “MBF Academy” tomonidan “Korrupsiyaga qarshi kurash, sanksiyalarni boshqarish va komplayens: g‘arb tajribasi asosida” mavzusida tashkil etilgan malaka oshirish kurslarini yakunlash natijasida **3 ta** sertifikatlar qo‘lga kiritildi.

Komplayens xizmatiga jami **271 ta** ijro hujjatlari kelib tushgan bo‘lib, ijro muddati kelgan **194 tasining** ijrosi o‘z vaqtida ta‘minlandi. Shu bilan birga, **42 ta** yuridik va jismoniy shaxslardan murojaatlar kelib tushgan bo‘lib, shundan **36 tasiga** huquqiy tushuntirish berilgan, **5 tasi** qisman qanoatlantirilgan, **1 ta** murojaat o‘rganish jarayonida.

Shu bilan birga, Jamiyatga xodimlarni ishga qabul qilish va boshqa ishga o‘tkazish bo‘yicha komissiyaning **551 ta** hamda homiylik va xayriya yordamlarini ko‘rsatish komissiyasining **63 ta** yig‘ilishlarida komissiya a‘zosi sifatida ishtirok etildi.

“NKMK” AJ va uning tarkibiy bo‘linmalarida ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo‘yicha Yo‘riqnomalar talablari asosida tanlov asosida ishga qabul qilinuvchi **3 875 nafar** nomzodlar ustidan tekshiruvlar amalga oshirildi. Nomzodlarni tekshirish natijasida **3 873 ta** ijobiy va **2 ta** salbiy xulosalar berildi.

Tanlov va mehnat qonunchiligi doirasida ishga qabul qilingan **3 874 nafar** xodimlarning mehnat shartnomalariga hamda “NKMK” AJ tomonidan tuzilgan **12 115 ta** xo‘jalik shartnomalariga korrupsiyaga qarshi shartlarning kiritilishi ta‘minlandi.

32 marotaba o‘rganish va xizmat tekshiruvlari o‘tkazilib, xato va kamchiliklarga yo‘l qo‘ygan **67 nafar** ishchi-xodimlar intizomiy javobgarlikka tortildi.

Jamiyatda faoliyat yuritayotgan **5 499 nafar** boshqaruv xodimlaridan yillik ehtimoliy **manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi deklaratsiya** to‘ldirtirildi. Dastlabki tahlillar natijasida **25 ta** mavjud va **70 ta** ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi holatlari aniqlandi hamda ularni bartaraf etish bo‘yicha Odob-axloq komissiyalari tomonidan tegishli tartibda qarorlar qabul qilindi.

Jamiyat bilan shartnomaviy munosabatlarga kirishmoqchi bo‘lgan **1 133 ta** kontragentlar tekshirildi. “NKMK” AJ bilan shartnomaviy munosabatlarga kirishuvchi xorijiy jismoniy va yuridik shaxs hamda banklarni sanksiyalar bo‘yicha nazorat qiluvchi Komissiya (*komissiya tarkibiga Komplayens xizmati kiritilgan*) tomonidan **12 ta** kontragent hujjatlari sanksiyaviy nazoratdan o‘tkazildi.

Xaridlar sohasida “Tovarlar, ishlar va xizmatlarni xarid qilish bo'yicha” Komissiyasi (*komissiya tarkibiga Komplayens xizmati kiritilgan*) tomonidan **7 ta** tender hujjatlari bo'yicha tovar yetkazib beruvchilar hujjatlari ko'rib chiqilib, qonuniylik ta'minlandi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-yanvardagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini **reyting baholash** tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-81-son qaroriga ko'ra, 2024-yil yakuni va 2025-yil 9-oyi bo'yicha **29 turdagi** ma'lumot va hisobotlar “**E-Anticor.uz**” elektron platformasiga kiritildi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan e'lon qilingan 2024-yil yakunlari bo'yicha **reyting baholash** natijalariga ko'ra, davlat organlari va tashkilotlari orasida “NKMK” AJ **96 ball** bilan **faxrli 1-o'rinni egalladi**.

Ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash sohasida.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 14-iyundagi “Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqlik darajasini oshirish va baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 154-son Farmoni ijrosi yuzasidan tegishli ma'lumotlarning belgilangan muddatlarda Jamiyatning rasmiy veb-saytida e'lon qilinishi ta'minlanmoqda.

Mazkur Farmoniga muvofiq, davlat tashkilotlari faoliyatida har yili ochiqlik bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarning samaradorligi va natijadorligini baholashga qaratilgan “**Ochiqlik indeksi**”ning 2024-yil uchun yakuniy natijalariga ko'ra, davlat organlari va tashkilotlarning faoliyati samaradorligi baholanib, “NKMK” AJ **89,2 ball** bilan eng yuqori samaradorlik ko'rsatkichlaridan birini qayd etib, **faxrli 4-o'rinni egalladi**.

Jamiyatning www.nkmk.uz rasmiy veb-saytida hamda ichki portalda (*jamiyat xodimlari uchun joriy etilgan*) joriy etilgan “**Korrupsiyaga qarshi kurashish**” va “**Ochiq ma'lumotlar**” bo'limlarida ichki idoraviy hujjatlar, ochiq e'lon qilinishi belgilangan ma'lumotlar, murojaatlarni yuborish uchun tegishli aloqa kanallari, ijtimoiy videoroliklar hamda Xizmatning mas'ul xodimlari to'g'risidagi ma'lumotlar joylashtirildi hamda ushbu ma'lumotlar doimiy tarzda yangilanib borilishi nazoratga olindi.

Shu bilan birga, Jamiyatning 2024-yil 9-fevraldagi tegishli buyrug'i bilan tasdiqlangan “NKMK” AJning faoliyatiga oid ochiq e'lon qilinishi lozim bo'lgan ijtimoiy ahamiyatga molik ma'lumotlar rasmiy veb-saytga e'lon qilinishi ta'minlandi.

Jamiyat faoliyatida ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash, ularning jamoatchilik va fuqarolar oldida hisobdorligini oshirish maqsadida ommaviy axborot vositalari vakillari va korxona ishchi-xodimlari ishtirokida **2025-yilning 30-yanvar kuni** “NKMK” AJ Markaziy apparati binosida, **12-mart va 17-iyul kunlari** Navoiy shahridagi “Farxod” madaniyat saroyining kichik majlislar zalida **brifing** o'tkazildi.

2025-yil iyulda Jamiyat Markaziy apparati “CERT International” xalqaro sertifikatlovchi tashkilot tomonidan o'tkazilgan 1-bosqich kuzatuv auditidan o'tkazilib, yakuni bo'yicha **ISO 37001:2016 “Korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi”** xalqaro standart talablariga muvofiqligi tasdiqlandi.